

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI



**“ZAMONAVIY O'ZBEK
ADABIYOTSHUNOSLIGINING
DOLZABR MASALALARI”**

mavzusidagi
**RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYASI
MATERIALLARI**

15-16-aprel

Guliston — 2022

Ushbu to‘plamdan Guliston davlat universitetida o‘tkazilgan **“Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”** mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101/F-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan 2022-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq o‘tkazilgan adabiyotshunos olimlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va iqtidorli talabalarning respublika ilmiy anjumaniga materiallari o‘rin olgan.

To‘plam materiallarida adabiyotshunos olimlar Umurzoq O‘ljaboyev va Vahob Rahmonovlarning hayoti va faoliyati, ularning ilmiy merosi, ijodiyotining o‘ziga xos jihatlari, o‘zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligi sohasiga qo‘shgan ulkan hissalar, ijodiy merosining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati, yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini tadqiq qilish, o‘zbek adabiyotshunosligi sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, sohadagi muammolarni aniqlash, ularning talqini, matnshunoslik va tabdil, badiiy asarlarning til xususiyatlari, adabiy ta’sir masalalari yoritilishi anjumanning asosiy mazmunini tashkil etgan.

Shuningdek, to‘plamdan badiiy adabiyot shakllanishining va rivojlanishining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan maqolalar ham o‘rin olgan.

Tahrir hay’ati:

Rahmonov Nasimxon – filologiya fanlari doktori, professor

Yo‘ldoshev Qozoqboy – pedagogika fanlari doktori, professor

Mamatqulov Muzaffar – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fayzullayeva Obidaxon – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sariboyeva Maqsuda – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Qo‘yliyeva Gulchehra – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘rayeva Dilnoza – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘ychiyev Abdunabi – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Primov Abdulatif – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Saymuratova Ijobat – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Normurodov Oybek – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

Oqbo‘tayev Elbek – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

To‘raqulov Rahmatjon – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Obidaxon Fayzullayeva

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur to‘plam Guliston davlat universiteti Kengashining 2022-yil 23-apreldagi 9-sonli yig‘ilishi qaroriga muvofiq nashrga tavsifiya etilgan.

Anvar Obidjon hikoyalarida hajviy obrazlar

*Elbek Oqbo‘tayev
GulDU stajyor-o‘qituvchisi*

Badiiy adabiyot rivojlanishiga nazar tashlasak, undagi adabiy meros va vorisiylik, an‘ana va yangilik, shakl va mazmun birligi, badiyat, asar tili, obrazlar tizimi, janrlar taraqqiyoti kabi qator omillar barcha davrlarda muhim o‘rin tutganini kuzatish mumkin. Bugungi adabiyot o‘tmish adabiy merosi zaminida rivojlanadi, undan oziqlanadi. Adabiy meros deganda o‘tmishda yaratilgan, umummilliy va umumbashariy qimmatga ega bo‘lganidan vaqt hukmini yengib kelayotgan adabiy-badiiy qadriyatlarning jami tushuniladi.

Bugungi adabiyot – o‘tmish adabiyotidan qolgan merosning vorisi. Adabiy meros asosida adabiy an‘analar shakllanadi. Adabiy an‘ana – zamonamiz, zamonaviy adabiyotimiz uchun qimmatga ega bo‘lganidan bugunda barhayot merosdir. Adabiyot taraqqiyotining uzliksiz jarayonida har bir davr oldingi davrlardan eng yaxshi jihatlarni o‘ziga singdiradi, ularni sayqallaydi, maromiga yetkazadi, ayni paytda, o‘zidan ham unga yangilik qo‘shishga intiladi. Shu tariqa, adabiyotning uzliksiz taraqqiyoti ta‘minlanadi.

Bu holat o‘zbek hajvchiligiga ham tegishlidir. Hajvchilikdagi yetuk shakllar, turli janrlar yangi badiiy-estetik qarashlar zahirida qayta ishlanib, novatorona qo‘llanishishi natijasida bugungi kunda o‘ziga xos badiiy-estetik vazifani bajarmoqda, hajviyalar turli ijtimoiy masalalarni yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Anvar Obidjonning epik va liro-epik hajviy asarlari fikrimizning isboti bo‘la oladi. Hajviy asarlardagi yaratilgan obrazlarning individualligi yozuvchi mahoratini yaqqolroq namoyon etadi.

O‘zbek adabiyoti tarixida hajviy obrazlarning o‘ziga xos namunalarini kuzatish mumkin. Zero, hajviy obrazlar yaratish an‘anasi xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Xalq ertak va hikoyatlari, rivoyat va afsonalardagi turli hajviy obrazlar adib asarlarida yangilangan shaklda namoyon bo‘ladi.

Anvar Obidjon o‘z hikoyalarida ham satirik, ham yumoristik obrazlarni yarata bilgan. Hajviy obraz yaratishda xalqchilik tamoyiliga amal qiladi. Uning

ko'pchilik qahramonlari o'ta samimiy, qing'irlikni xayoliga keltirmaydigan oddiy qishloq kishilari. Hikoyalardagi qahramonlarning qanday kishilar ekanligi ularga muallif tomonidan berilgan ta'riflar va personajlar nutqi orqali anglashilib boriladi.

Anvar Obidjon hajviy hikoyalarida satiradan ko'ra yumorga ko'proq murojaat qiladi. Insonlardagi tuzatsa bo'ladigan kamchiliklarni yengil kulgu orqali namoyon qiladi. Hikoyalaridagi o'ziga xosliklardan biri shundaki, yozuvchi yaratgan qahramonlariga antiqa nomlar qo'yadi. Masalan "Baloga qolgan futbolchi" to'plamiga kirgan hikoyalar qahramonlarining nomlarida timsollilik va ramziylik kuzatiladi: Patiydin, Zilzilaxon, Go'ga Gadoevich, So'zpardoziy, Lug'atxo'jaev, Serkaxon, Parriqiming'i, Urug'ali, Qurug'ali, Qovoqboev, Shavlaev, Qovunchiev, Markaev, va hokazo.

Muallif bu ismlarni o'z g'oyaviy maqsadini amalga oshirish uchun o'ylab topgan, lekin bu ismlar shunchaki kulgu uyg'otishdan ko'ra kengroq ma'no uchun xizmat qilgan deyish mumkin. Ismlar qahramonlarning fe'l-atvori, jamiyatdagi o'rni, qay sohaga mansubligini o'qirmanga bildirib turadi. Masalan: "Shiliqabiliq" hikoyasi qahramonlari So'zpardoziy va Lug'atxo'jaevlar tilshunos olimlar ekanini hikoya matnida aytib o'tilgan bo'lsa ham, muallif tomonidan ularga berilgan ismlar orqali ularning shu soha uchungina "tug'ilgan"i yoki kasbini ko'z-ko'zlash maqsadida o'zining haqiqiy ismini o'zgartirib olgan odamlar ekanini anglashiladi. Har ikki holatda ham satirik asar uchun muhim xususiyatlardan bo'lgan kulgu va mo'ljalga olingan muammoning ayovsiz tanqidi mavjud.

"Shiliqabiliq" hikoyasida muallif sohta olimlarning karikaturasini yaratadi. Haqiqiy olim va riyokor, aldamchi, o'z sohasini to'liq anglamagan sohta olimlarning farqini ko'rsatishga harakat qiladi. Hikoya voqealari juda qisqa fursat ichida ro'y berib o'tadi, hikoyada qatanashuvchi qahramonlar bir necha kishidan iborati: "katta olim" So'zpardoziy, uning sodiq shogirdi Lug'atxo'jaev, va oddiy, lekin zakiy xalq vakili sifatida hikoyada qatnashuvchi qariya.

Hikoya boshida muallif ikki "ilm ahli"ni ta'riflab o'tadi. O'qirman bu ta'riflardan hech ham ajablanmaydi, chunki bu suhbat ustoz-shogirdning oddiy ilmiy suhbatiga yo'yiladigan gaplar. Lekin ustoz-shogird tilshunoslarning o'zaro bahslari

boshlangani zahoti, ularning nutqi orqali, bu olimlarning asli ochilib boradi. Shogird ustoziga tilshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar natijasida joy nomlarining kelib chiqishi bo'yicha yangilik topganini suyunib gapirib beradi: *“Keyingi oylarda yuz xil lug‘at titkilab kunim o‘tdi. Povulg‘on degan qishloqning nomi nimadan kelib chiqqanini aniqlash ustida ko‘p bosh qotirdim. Ba‘zi olimchalarimizning bu boradagi taxminlari meni qoniqtirmaydi”*¹.

Ustoziga laganbardorlik yoqishini sezib turgan Lug‘atxo‘jaev atayin o‘z “yangilik”ini aytish asnosida boshqa olimlarni “olimchalar” deb kamsitib gapiradi.

Lug‘atxo‘jaev o‘z boshvoqchisi domla So‘zpardoziyning izdoshlarini “olim”, qolganlarni «olimchalar» deb atar, bu iboralar ustozga yog‘dek singayotgani har safar uning yuzidan yarq-yurq sezilib turardi. *“Povulg‘on, Pungon singari joylarning nomi mo‘g‘ulchada soqchilar qo‘rg‘onchasi ma‘nosini anglatadi degan qarashlarga mendayam shubha bor, –Ulug‘bekka uqtirayotgan kepatada so‘z qotdi domla So‘zpardoziy. – Bahsli fikr bu. Harqalay, biron yangiroq talqin topdingmi?”*²

Hikoya nasrdagi eng kichik janr bo‘lganligi tufayli, voqealar nisbatan tarang bo‘lishi, ular tor zamon doirasida kechganligi sababli muallif, qahramonlar xarakteri, ularning tutumlari haqidagi haqiqatni tezlik bilan ochib berishi talab qilinadi. Yuqoridagi parchada ustoz-shogirdning insoniy hislatlarida kamchilik borligini ilg‘agan o‘qirman, ustozning savoliga javob tariqasida aytilgan yangilikdan so‘ng, bu ikki qahramonning nafaqat insoniy fazilatlarda qusuri borligi, balki, o‘z sohasidan ham bexabar odamlar ekanligini anglaydi.

Lug‘atxo‘jaev aynan shu savolni ko‘pdan intizorlanib kutgandek, shoshapisha bosh qimirlatdi:

– Topdim, ustoz, topdim. Ishonchim komil, bu qishloq Rusiya hukmdori bo‘lmish Pavel Birinchi, yoinki Pavel Ikkinchining sharafiga qurilgan. Tabiiyki, nomini o‘zbekchalashtirib, Paveljon deyishgan. Bora-bora, shevada Povulg‘on bo‘pketgan.

Bu gapni eshitib, domla So‘zpardoziy puffa tutaqib ketdi. Pavellar

¹ Анвар Обиджон.Балога қолган футболчи. (ҳажвий ҳикоялар). Тошкент. 2010-йил. 9-бет

² Ўша китоб, 9-бет

hukmdorligi davrida Turkiston Russiyaning ta'sirida bo'lmaganini aytib, shu oddiygina mantiqni nazardan qochirgani uchun shogirdini astoydil siltab tashladi. Shogirdlari orasida mana shu Lug'atxo'jaev sal no'xtasizroq shakllandi-da. Buxoroning nomi o'rischadagi «bugorok» so'zidan kelib chiqmaganmikan, deb ilgariyam hammaga kulki bo'lganidi. Mana, yana qovun tushirishiga oz qoldi.³

Hikoya davomida, ustozining e'tirofi ilinjida bo'lgan Lug'atxo'jaev Bo'ka so'zini arab tilidan kirib kelganligini aniqlaganini aytib bilimdonlik qiladi, ustoz bu so'z forsiydan kirib kelganligini gumonlaydi. Shunda tasodifan bu suhbatga oddiy bir qariya guvoh bo'lib qoladi va ikki ilm ahlining ham so'zlari xato ekanligi, Bo'ka so'zi o'zbekcha so'z ekanligini aytadi. Tabiiyki, o'zlarni buyuk olim sanab yurgan olimlar, bu oddiy odamning so'zlariga burun jiyirishadi. Siz bilasizmi, bizmi deya mazah ham qilishadi. Bu epizodda ustoz-shogirdning manman va ma'naviyatdan ancha yiroq kishilar ekanligi ham oydinlashadi.

Hikoya davomida, kitobxon bir tomondan ustoz-shogirdning ahmoqona farazlari ustidan miriqib kulsa, ikkinchi tomondan, o'zini olim sanab, katta baho beradigan insonlarning tipik namunalari mahorat bilan yarata bilganligini anglaydi. Otdan tushsayam, egardan tushmaydigan qahramonlar o'zlarni qanchalar “bilimli” ekanligini qariyaga ko'rsatish umidida, turli so'zlarni tilimizga qaysi tildan kirib kelganini o'zlaricha tushuntirib o'tishadi. Lekin, qariya bu ikki olimni gaplarini yana xato hisoblaydi:

– Senlarda yo hamiyat yetishmaydi, yo asli zoting boshqa zuvaladan, – ustoz va shogirdning basharasidan o'zbeklikni sinchiklab qidirdi qariya. – O'zbekning gapini bir arabga ilinasan, bir nemisga.⁴

Hikoyada ushbu so'zlar qariya tilidan aytilgan bo'lsa-da, muallif satirik tig'ining eng keskir nuqtasi shu so'zlarda namoyon bo'ladi, u shu qariya obrazi orqali jamiyatdagi o'z tiliga xiyonat qilguvchi, o'z xalqi bilan yaqin bo'lolmagan, xalqi tarixini bilmay, boshqa xalqlarni bilishi bilan maqtanib, o'z xalqidan nafratlangan chala olimlar ustidan kuladi.

³ Анвар Обиджон.Балога қолган футболчи. (ҳажвий ҳикоялар). – Тошкент. 2010-йил. 10-бет

⁴ Анвар Обиджон.Балога қолган футболчи. (ҳажвий ҳикоялар). Тошкент. 2010-йил. 10-бет

Hajviy asarlarda sarkazm ko‘pincha darjama-daraja oshib boradi. Oddiy bir qariyani mensimay, uning xato so‘zlayotganini bir- biriga uqtirib turgan ustoz-shogirdning ko‘nglida bir-biridan xufyona istak paydo bo‘ladi. Ikkisi ham boyagi qariyaning Bo‘ka so‘zining kelib chiqishi haqidagi fikriga ko‘ngillarida ishonch bildirib bo‘lishgandi, ikkovi ham bu yangilikni o‘z nomiga yozdirib qo‘yishni mo‘ljal qilishadi.

Domla So‘zpardoziy esa, bu pallada chuqur o‘yga cho‘mgandi. «Gulpadar cholning Bo‘ka xususidagi gaplarida jon bor, – deya ichida mulohaza yuritayotgandi u. – Bu topilmani matbuotda tezroq e‘lon qilvormasam bo‘lmaydi. Aks holda, anavi yalamur og‘zimdagini ilib ketadi.

Domla So‘zpardoziy shumshuk shogirdining ko‘zlariga bir muddat sinovchan tikilib turgach, farmon ohangida dedi:

– Sen bola asosiy maqsaddan chalg‘ima, Povulg‘onni yanayam tuzukroq mijib ko‘r. Tushunarlimi?!

– Tushundim ustoz... Siz doim haqsiz...

Lug‘atxo‘jaev tilida shunday dedi-yu, dilida boshqa gap kechdi. «Obbo, qari tullag-ey, – deb o‘yladi u. – Bilsam-bilmasam, meni eski ishga alahsitib qo‘yib, Bo‘ka haqidagi yangilikni o‘zi kappa otmoqchi. Hoziroq radioga chopganim bo‘lsin...»⁵

Anvar Obirjon personaj nutqidan unumli foydalanadi. Mazkur hikoyada ham har bir personaj nutqi orqali ularning ijtimoiy mavqeyi, tafakkur tarzi, insoniylik fazilatlari, ma‘naviy nuqsonlari yaqqol ko‘rinadi. So‘zpardoziyning personaji tilidan yangraydigan “gulpadar” so‘zi orqali o‘qirmanda xalq orasida keng tarqalgan haqorat so‘zni madaniylashtirib olgan qahramon ko‘z oldiga keladi. Muallif o‘zini juda madaniyatli olim deb hisoblaydigan obrazni ham tashqi ko‘rinishi tavsifi, ham ichki dunyosining o‘z nutqi orqali namoyon bo‘lishi holati orqali ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁵ Анвар Обиджон.Балога қолган футболчи. (ҳажвий ҳикоялар). – Тошкент. 2010-йил. 11-бет

1. Sirojiddin Sayyid. She'rlar to'plami. I jild. –T.: Sharq, 2019. - 480 b.
2. O'zbek xalq maqollari.(Tuzuvchilar: Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B.) – T.: Sharq, 2005. – 512 b.
3. II.O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Tuzuvchilar: M. Jo'rayev, R. Nurullin, S. Kamolov va boshqalar. – T.: Sharq, 2000, 688-b.

MUAMMO TALQINIDA YETAKCHI QAHRAMONNING O'RNI

*Bobur RO'ZIBOYEV,
GulDU tadqiqotchisi*

gavdalantirilgan: “Jo'rajon, bizlar tinch ketaylik, do'xtir chaqir, akangning yarasini bog'lasin, onangniyam ko'rib qo'ysin, dedik. – Do'xtir uzoqda, men bormayman, - dedi u”. Ushbu dialog bu oila uchun urush-janjal bo'lishi yangilik emasligi, aka uchun, ona uchun kuyinish hissi umuman yo'qligi, mehr-oqibatning ko'tarilganini ochib beradi.

Bunday axloqan tubanlashuv doktor obrazida ham kuzatiladi. Muallif doktorning qiyofasiga alohida belgi chizmaydi. Uning butun qiyofasini birgina nutqiy detall orqali ifodalab beradi: “... Toshtemir do'xtur kelib boyladi, uningam kayfi borakan, aroq so'radi, bermab edik, ketib qopti”. Hikoyada ikkinchi bor ichkilikning salbiy qiyofasi ochib beriladi. Uning insoniylik qiyofasini yo'qotuvchi vosita, omil ekanligiga urg'u beriladi. Hikoya so'ngida quyidagi tasvir beriladi: “Qishloqqa oshib tushganimizda, garchi kech tushayotgan bo'lsa-da, quyosh chiqdi”. Bu tasvir o'sha muhitdan dastlabki sokin, osoyishta muhitga qaytgan qahramonning o'ylari sifatida berilgan. Shu bilan birga Hoji boboning ahil-inoq oilasiga ishora berilgan. Bu hikoya orqali yozuvchi hayotda axloqan buzuvchi insonlar bilan bir qatorda xushxulqli insonlar ham mavjudligini ta'kidlaydi. O'zbek hikoyachiligi ikki xil yo'nalishda rivojlanayotganligini kuzatish mumkin: an'anaviy realistik va noan'anaviy modernistik. Yuqorida keltirilgan hikoya an'anaviy realistik uslub namunasi hisoblanadi. Bilamizki, haqiqiy adabiyot real hayotdan shunchaki nusxa ko'chirishdan iborat emas. Unda yozuvchining yuksak badiiy tafakkuri, romantik hayoloti, original badiiy to'qimasi, badiiy-estetik ideali, muallif dunyoqarashi aks etmog'i lozim. Xususan, S.O'nar hikoyalarida o'zbek millatini tubanlik sari yetaklayotgan mehrsizlik, oqibatsizlik, tubanlashuv singari ma'naviy-axloqiy muammolar asosiy planga chiqariladi. U mitti hajmli hikoya janrida insonga xos muhim salbiy yoki ijobiy hislatni mahorat bilan ochib beradi.

65.	<i>Yorqinjon HAYITBOYEV</i>	<i>TO‘RA SULAYMONNING “ILTIJO” SHE‘RIDAGI BADIY NIYAT VA G‘OYANING USTUVORLIGI</i>	226
66.	<i>Gulsanam ABDAZOVA</i>	<i>BADIY ASAR TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK MASALASI</i>	229
67.	<i>Bobur RO‘ZIBOYEV</i>	<i>PERSONAJLAR VA BADIY G‘OYA IFODASI</i>	232
68.	<i>Elbek OQBO‘TAYEV</i>	<i>ANVAR OBIDJON HIKOYALARIDA HAJVIY OBRAZLAR</i>	235
69.	<i>Bobur RO‘ZIBOYEV</i>	<i>MUAMMO TALQINIDA YETAKCHI QAHRAMONNING O‘RNI</i>	240
70.	<i>Hayitbek BILOLOV</i>	<i>QISMAT</i>	246
71.	<i>D.T.AYTBAYEV</i>	<i>MUSTAQIL FIKRLAYDIGAN O‘QUVCHILARNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O‘RNI</i>	250
72.	<i>Sevara BABAYEVA</i>	<i>ISAJON SULTON IJODIDA BADIY TAFAKKUR SHAKLLARI</i>	252
73.	<i>Sevinchoy YOQUBOVA</i>	<i>TABIAT VA INSON RUHIY KECHINMALARINING SHOIRONA TASVIRI</i>	258
74.	<i>Sevara BABAYEVA</i>	<i>ISAJON SULTONNING “OZOD” ROMANI KOMPONENTLARIDA BADIY TAFAKKURNING YUZAGA CHIQISHI</i>	261
75.	<i>O‘g‘ilnor RO‘ZIYEVA</i>	<i>ABDULLA ORIPOV IJODIDA HIKMAT VA BADIYAT UYG‘UNLIGI</i>	267
76.	<i>BABAYEVA Sevara</i>	<i>BADIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDA OBRAZLILIKNING O‘RNI</i>	270
77.	<i>Gavhar ShERBEKOVA</i>	<i>YOR-YOR MATNLARIDA KELIN- KUYOV RITUAL UDUMLARINING BADIY IFODASI HAQIDA</i>	274
78.	<i>Shohsanam QARSHIYEVA</i>	<i>NAVOIY MUAMMOLARIDA BADIY OBRAZ</i>	277
79.	<i>Gulg‘uncha SABIROVA</i>	<i>ISAJON SULTON HIKOYALARIDA HAYOT FALSAFASI</i>	282
80.	<i>Gulianbar QURANBAYEVA</i>	<i>MATNAZAR ABDULHAKIM – ZUKKO ADABIYOTSHUNOS</i>	284
81.	<i>Oysuluv MUSURMONKULOVA</i>	<i>BADIY ASAR ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH</i>	287
82.	<i>Nargiza NORMURODOVA</i>	<i>ZULFIYA SHE‘RIYATIDA SADOQAT TARANNUMI</i>	290
83.	<i>Zamiraxon IBRAGIMOVA</i>	<i>O‘ZBEK POEMACHILIGI GENEZISI BORASIDA..</i>	294

**“ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB
MASALALARI”
mavzusidagi
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
(Guliston, 2022-yil, 15-16-aprel)**

Texnik muharrir

Sh.Murodov

Musahhih

Sh. Muqimova

2022-yil 08-aprelda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. “Times New Roman” garniturası.
Offset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı – 32,8.
Adadı 100 nusxa. Buyurtma № 46

GulDU tahririyat-nashriyot bo‘limida chop etildi.
120100. Guliston sh., 4-mavze.